

- ESG ko'rsatkichlarini bank kredit siyosati va investitsiya qarorlariga integratsiya qilish;
- "yashil" va ijtimoiy obligatsiyalar orqali barqaror moliyaviy instrumentlarni rivojlantirish;
- ESG bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash va sertifikatlash tizimini yo'lga qo'yish.

Mazkur mexanizmlar ESG ni nazariy konsepsiyadan real moliyaviy mexanizmga aylantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston moliya bozorida ESG tamoyillarini joriy etishdagi kechikishlar institutsional, normativ-huquqiy va boshqaruv omillari bilan bog'liq tizimli muammolarning natijasidir. "O'zbekiston -2030" strategiyasi doirasida ESG tamoyillarini moliya bozoriga chuqur integratsiya qilish mamlakatning investitsiya jozibadorligini oshirish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanish uchun muhim shart hisoblanadi. Xulosa qilib aytganda, ESG tamoyillarini milliy sharoitga moslashtirilgan holda joriy etish O'zbekiston moliya bozorining sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *"O'zbekiston - 2030" strategiyasi. PF-158- Toshkent, 11.09.2023*
2. *O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Moliya bozorini rivojlantirish bo'yicha yillik hisobot. - Toshkent, 2024-2025.*
3. *World Bank, ESG and Sustainable Finance in Emerging Markets. - Washington, 2022.*
4. *International Finance Corporation (IFC), ESG Integration in Financial Markets. - 2024.*
5. *Global Sustainable Investment Alliance (GSIA), Global Sustainable Investment Review. - 2024.*

O'ZBEKISTON BANK-MOLIYA TIZIMIDA DAVLAT VA XUSUSIY BANKLARNING BALANS TARKIBI HAMDA ASOSIY KO'RSATKICHLAR TAHLILI

Azimboyeva Marjona

Bank-moliya akademiyasi magistranti

O'zbekiston bank-moliya tizimida davom etayotgan islohotlar sharoitida davlat va xususiy tijorat banklarining balans tarkibi hamda asosiy moliyaviy ko'rsatkichlarini chuqur tahlil qilish zarurati ortib bormoqda. So'nggi yillarda banklar kapitallashuvi, aktivlar sifati, kredit portfeli tarkibi va depozitlar bazasini diversifikatsiya qilish bo'yicha sezilarli o'zgarishlar kuzatilmoqda. Davlat ulushi yuqori bo'lgan banklarni bosqichma-bosqich xususiylashtirish, "xalqchil IPO"lar, raqamli bank xizmatlari va bozor stavkalari asosida resurslar jalb etish siyosati raqobatni kuchaytirmoqda. Shu bilan birga, muammoli kreditlar ulushini

kamaytirish, riskga asoslangan nazorat va Basel standartlariga mos kapital yetarliligini ta'minlash dolzarb bo'lib qolmoqda. Kelgusida moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash uchun balans tuzilmasini optimallashtirish, uzoq muddatli resurslar ulushini oshirish hamda real sektorni samarali kreditlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish talab etiladi.

1-jadval

Davlat va xususiy banklar aktivlari va majburiyatlarining o'zgarish dinamikasi, trln so'mda (2020–2025)¹²

	2020	2021	2022	2023	2024	2025
Aktivlar						
Davlat banklari	307.79	362.42	390.90	441.78	503.19	586.94
Xususiy banklar	58.33	82.50	165.85	210.38	266.14	337.83
Xususiy bank kreditlari ulushi,%	15.93%	18.54%	29.79%	32.26%	34.59%	36.53%
Majburiyatlar						
Davlat banklari	259.14	304.73	334.94	378.54	433.01	505.51
Xususiy banklar	48.63	69.28	142.24	176.54	221.53	283.91
Xususiy bank depozitlar ulushi,%	15.80%	18.52%	29.81%	31.80%	33.84%	35.96%
Jami kreditlarni depozitlarga nisbati,%	118.96%	118.96%	116.67%	117.49%	117.54%	117.14%

1-jadvaldagi ma'lumotlari 2020–2025-yillarda O'zbekiston bank-moliya tizimida davlat va xususiy banklar balansining izchil kengayayotganini ko'rsatadi. Davlat banklari aktivlari 307,8 trln so'mdan 586,9 trln so'mga, xususiy banklar aktivlari esa 58,3 trln so'mdan 337,8 trln so'mga oshib, xususiy sektor ulushi 15,9 foizdan 36,5 foizgacha ko'tarilgan. Xuddi shunday tendensiya majburiyatlar bo'yicha ham kuzatilmoqda. Xususiy banklar majburiyatlari ulushining 15,8 foizdan qariyb 36 foizgacha o'sishi bozor resurslari uchun raqobat kuchayganini, aholi va biznesning davlat banklaridan tashqari alternativ moliyaviy vositachilarga bo'lgan ishonchi ortganini bildiradi. Jami kreditlarning depozitlarga nisbatining 118–117 foiz atrofida deyarli barqaror saqlanib qolishi esa kreditlash va resurs bazasi o'sish sur'atlari nisbatan muvofiqlashtirilayotganini anglatadi.

Shu bilan birga, koeffitsientning 100 foizdan yuqori bo'lishi tizimda hali ham nodepozit manbalar va qisqa muddatli resurslar hisobidan uzoq muddatli kreditlar moliyalashtirilayotganini, demak, likvidlik va qayta moliyalashtirish risklarini yanada pasaytirish zarurligini ko'rsatadi. 2-jadval ma'lumotlari bank tizimida kredit va depozitlar o'sishi ortida turgan chuqur tarkibiy jarayonlarni ko'rsatilgan statistik ma'lumotlar berilgan. 2020–2025 yillarda jami kreditlarning depozitlarga nisbati 241 foizdan 145 foizgacha pasaygani, bir tomondan, ichki jamg'armalar bazasining kengayayotganini, ikkinchi tomondan esa tizim asta-

¹² Muallif tomonidan Markziy bank ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

sekin depozitsiz manbalarga (budjet, tashqi qarz, xalqaro moliya institutlari liniyalari) ortiqcha tayanishdan voz kechilayotganini anglatadi.

2-jadval

Davlat va xususiy banklar kreditlari hamda depozitlari va jami kreditlarning depozitlarga nisbatining o'zgarish dinamikasi, trln so'mda (2020–2025)¹³

	2020	2021	2022	2023	2024	2025
Kreditlar						
Davlat banklari	242.63	280.07	292.02	333.30	366.73	404.47
Xususiy banklar	34.34	46.31	98.03	138.11	166.39	199.53
Xususiy bank kreditlari ulushi,%	12.40%	14.19%	25.13%	29.30%	31.21%	33.04%
Depozitlar						
Davlat banklari	80.34	104.25	119.10	124.36	154.51	212.67
Xususiy banklar	34.41	51.94	97.64	117.33	154.18	204.59
Xususiy bank depozitlar ulushi,%	29.99%	33.26%	45.05%	48.55%	49.95%	49.03%
Jami kreditlarni depozitlarga nisbati,%	241.38%	208.97%	179.96%	195.05%	172.70%	144.76%

Shunga qaramay bu ko'rsatkichning 100 foizdan sezilarli yuqori bo'lib qolishi uzoq muddatli kreditlar asosan qisqa muddatli depozitlar hisobidan moliyalashtirilayotganini, likvidlik va qayta moliyalashtirish risklarining saqlanib turganini ko'rsatadi. Xususiy banklar kreditlari va depozitlari ulushining tez o'sishi aholi va biznesning davlat banklaridan tashqari alternativ moliyaviy vositachilarga bo'lgan ishonchi ortayotganidan dalolat beradi. Bunda foiz stavkalari bozor tamoillarga asosan erkin belgilanishi, raqamli xizmatlar va maoshlarning kartalar orqali to'lanishi muhim omil bo'lmoqda. Biroq raqamlarda kreditlarning tarmoq bo'yicha konsentratsiyasi, NPL darajasi, valyuta tarkibi va davlat dasturlari ta'siri kabi jihatlar aks etmagan bo'lib, ular bank tizimi barqarorligini baholashda alohida chuqur tahlilni talab etadi.

Umuman olganda, tahlillar O'zbekiston bank-moliya tizimida 2020–2025-yillarda davlat va xususiy banklar balans hajmi sezilarli kengayganini, ayniqsa xususiy sektor ulushi barqaror oshganini ko'rsatadi. Aktiv va majburiyatlarning o'sishi, kredit va depozitlar bazasining kengayishi banklarning moliyaviy vositachilik rolini kuchaytirgan bo'lsa-da, jami kreditlarning depozitlarga nisbati 100 foizdan yuqori darajada saqlanib qolayotgani resurslar tarkibida qisqa muddatli va nodepozit manbalar ulushi yuqoriligini anglatadi. Bu esa likvidlik va qayta moliyalashtirish risklarini izchil boshqarishni talab qiladi. Shuning uchun kelgusida muammoli kreditlar ulushini qisqartirish, uzoq muddatli, barqaror depozit va bozor instrumentlari ulushini oshirish, xususiy banklar raqobat

¹³ Muallif tomonidan Markziy bank ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

afzalliklarini kuchaytirish hamda riskga asoslangan nazorat va Basel standartlariga mos kapital siyosatini chuqurlashtirish ustuvor vazifa bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1. Tangishov, M.R. (2023) Tijorat banklarining innovatsion faoliyatini takomillashtirish. Avtoreferat. Toshkent.*
- 2. Maksudov, B.A. (2023) Tijorat banklarining muammoli aktivlarini qisqartirish yo'llari. Avtoreferat. Toshkent.*
- 3. Malikova, D.M. (2024) Tijorat banklari iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning ilmiy asoslarini takomillashtirish. Avtoreferat. Toshkent.*
- 4. Toshpulatov, N. (2019) 'Bank riskini minimallashtirish strategiyalari', Moliya institutlari jurnali.*
- 5. Rizoiev, B. (2020) Moliyaviy bozorlar va bank riski: o'zaro aloqa. Toshkent: Moliya tadqiqotlari.*
- 6. Sindarov, F.Q. (2024) 'O'zbekiston bank sektoridagi tizimli muammolar va islohotlar samaradorligi', "Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil" ilmiy elektron jurnali, XI son, Noyabr, 2024, 297-305 -betlar.*
- 7. <https://cbu.uz>*
- 8. <https://new.openinfo.uz>*

AHOLINING MOLIYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA SOLIQ NAZORATINING O'RNINI VA AHAMIYATI

Kodirov Aqliddin Xakim o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

Moliyaviy savodxonlik zamonaviy jamiyatda shaxsiy moliya boshqaruvi, iqtisodiy barqarorlik va davlatning budjet siyosatini samarali amalga oshirish uchun muhim omil hisoblanadi. Moliyaviy savodxonlik darajasi past bo'lgan aholida soliq to'lovlari intizomsiz amalga oshiriladi, bu esa budjet tushumlarining barqarorligini pasaytiradi va davlatning iqtisodiy siyosatini to'liq amalga oshirishga to'sqinlik qiladi. Shunga ko'ra, soliq nazorati tizimi nafaqat soliq tushumlarini yig'ish mexanizmi sifatida, balki aholining moliyaviy bilim va ongini oshirish vositasi sifatida ham katta ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda soliq tizimining samaradorligini oshirish, aholining soliq madaniyatini shakllantirish va moliyaviy savodxonlikni rivojlantirishga qaratilgan bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, davlatimiz rahbari tomonidan "Aholi va tadbirkorlik subyektlari o'rtasida soliq to'lash madaniyatini yuksaltirish, mazkur jarayonlarda mahalla institutining faol ishtirokini rag'batlantirish hamda soliq organlarining jamoatchilik oldida hisobdorligini va faoliyatining ochiqligini yanada oshirish"